



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 йил «29» апрель

VI-47-39-11-166-K/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

Hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorikda 2022 yil 3 oyi mobaynida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Qo'qon shahar IIB boshlig'ining axboroti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonlaridan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida Qo'qon shahri hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida sektor rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorikda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirildi.

2022 yil 3 oyida shahar kesimida jami 497 (2021 yilda 667) ta jinoyatlar sodir etilib, 170 taga yoki 25,42 foizga kamaygan. Ularning 417 tasi sodir etilgan va 80 tasi aniqlangan jinoyatlarni tashkil qilgan.

JQ yo'nalishidagi jinoyatlar 148 taga 25,83% (425-573)

kamaygan, og'ir turdagi 30 taga 28,85 % (74-104) kamaygan, uncha og'ir bo'lmagan 61 taga 33,52 % (121-182) kamaygan, o'ta og'ir turdagi (19-19) barqaror saqlangan.

Jinoyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda Firibgarlik 4 taga 3,28% (126-122) oshgan, O'lim bil bog'liq YTX 1 taga 100% (2-1) oshgan, Og'ir tan jarohati yetkazish (9-9) barqaror saqlangan, Qotillik 5 taga 83,33 % (1-6) kamaygan, Bosqinchilik 1 taga (1-2) kamaygan, Nomusga tegish -2 taga -100 % ga (0-2) kamaygan, Talonchilik 3 taga 42,86 % (4-7) kamaygan, O'g'irlik 125 taga 44,96% (153-278) kamaygan, Bezorilik 4 taga 80 % (1-5) kamaygan, Transport olib qochish 3 taga 100% (0-3) kamaygan, O'rta og'ir tan jaroxati 11 taga 50,0 % (11-22) kamaygan, Yengil tan jaroxati 31 taga 54,39 % (39-54) kamayishiga erishilgan.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 4,00%, 1 taga (26-25) oshgan. Umumiy jinoyatlarning 5,23 % voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning barchasi maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilgan.

Yoshlar tomonidan 80 (80) ta jinoyatlar sodir etilgan. Shaharda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 25,9% yoshlar tomonidan sodir etilgan.

Muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 95 (82) ta 15,8% yoki 13 taga oshgan. Sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 19,1%ni tashkil etadi.

Ayollar tomonidan 2022 yil 3 oyi davomida sodir etilgan jinoyatlar 88 (70) ta 25,71 % yoki 18 taga oshgan. Umumiy jinoyatlarning 17,7%ni tashkil etadi. Ayollar tomonidan 37 ta o'g'irlik, 20 ta firibgarlik, 15 ta qo'shmachilik kabi jinoyatlar sodir etilgan. Jinoyat sodir etishda ishtirok etgan xotin-qizlar soni 91/92.

62 nafar ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan oilani yarashtirish masalalarida shahar yarashtirish komissiyasi a'zolari bilan birgalikda yarashtirish ishlari olib borildi.

Oila turmush munosabatlari doirasida huquqbuzarlik sodir etgan 56 (49) nafar oilalar bilan profilaktik suxbat olib borilib 60 (44) nafar jabrlangan xotin qizlarga ximoya orderi berildi.

Sodir etilgan jami jinoyatlarning 360 tasi oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar, 137 tasi aniqlangan jinoyatlar tashkil qilgan.

Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar yo'nalishida 58 ta jami jinoyat sodir etilgan. Qotillik – 1 ta, Og'ir TJE – 9 ta, Bezorilik – 1 ta, O'rtacha TJE – 11 ta, Yengil TJE – 26 ta, YTH – jami 10 ta, shundan o'limli YTH – 2 ta, Ushbu yo'nalishda sodir etilgan barcha jinoyatlar fosh etilgan.

Qidiruv yo'nalishi bo'yicha 221 nafar shaxslar qidiruvda bo'lib, joriy yil xisobga 30 nafar qo'yildi, 30 nafar ushlandi, yil boshiga xisobga qo'yilganlardan ushlandi – 17 nafar, Qoldiqda – 191 nafar. Shundan DEO – 92 nafar.

Ma'muriy nazorat qonuni ta'siri ostiga tushuvchi shaxslar 88 nafarni tashkil etib, 2022 yilning 1 choragi davomida 45 nafar shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilib, bugungi kunda 67 nafar shaxslar ma'muriy nazorat ostida turibdi. Ma'muriy nazorat o'rnatilmagan ilgari sudlangan shaxslardan 1 nafari uzoq muddatga ketganligi uchun, 2 nafari sog'lom turmush tarzini kechirayotganligi sababli, 2 nafari og'ir kasalligi sababli ma'muriy nazoratga olinmagan bo'lsa, 7 nafari jazo muddatini o'tamoqda, 11 nafar shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish choralari ko'rilmoqda.

2022 yil fevral oyida davomida jami 151 nafar shaxslar profilaktik hisobga olingan Shundan 1 chorak yakuni bo'yicha profilaktik hisobda 2 649 nafar shaxslar tashkil qilmoqda.

2021 yil yakuniga ko'ra viloyat 2-sonli ruxiy kasalliklar shifoxonasida 36 nafar ijtimoiy xavfli ruxiy kasallar mavjud bo'lib yil davomida ularning 22 nafari davolanishga joylashtirildi.

Narkologiya dispantserida 501 nafarspirtli ichimlikka ruju qo'yganlar va 180 nafar giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslar hisobda turadi. 2022 yil 1 chorak davomida spirtli ichimlikka ruju qo'ygan 4 nafar shaxs ixtiyoriy, 8 nafari majburiy tartibda davolanishga joylashtirilgan bo'lsa, giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslarning 2 nafari majburiy, 4 nafari ixtiyoriy tartibda davolanishga joylashtirildi.

2022 yil 1 choragi davomida jami 7 744 ta (7 645) ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, o'tgan yilga nisbatan 99 taga yaxshilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar, kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni nazorat etishni yanada kuchaytirish, doimiy monitoringini olib borish hamda yuzaga kelgan muammolarni hal etilishini ta'minlash maqsadida "Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik bilan hamkorikda amalga 2022 yil 3 oyi mobaynida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida shahar IIB boshlig'i N.Sultonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahardagi sektor rahbarlariga:

- jinoyatlar soni oshgan har bir mahalla fuqarolar yig'inida taxlil

qilib jinoyatlarni oldini olish va kamaytirish choralarni ko'rish;

- jinoyatning kelgusida takrorlanishining oldini olishga qaratilgan aniq choralar ko'rish, jinoyatga qarshi kurashish adolatini ta'minlash orqali jinoyat sodir etgan aybdor shaxslar aniqlanib, qat'iy choralar ko'rish hamda bu jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini ta'minlansin.

3. Shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i N.Sultonovga:

- jinoyatlarning ayrim turlari oshgan MFYlar kesimida kriminogen vaziyatni tanqidiy tahlil qilgan holda jinoyatlarning oshish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilishga qaratilgan qat'iy choralar ko'rish;

- mas'ul idora va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni muntazam tahlil qilish asosida, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlab maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- MFYlarda videokuzatuv kameralarini doimiy ishlashini nazoratga olish topshirilsin.

4. Qo'qon shahar hokimi o'rinbosari B.Xasanova va Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i B.Po'latovlarga:

- hududlarda yoshlar, xotin-qizlar tomonidan jinoyat, huquqbuzarlik hamda o'z joniga qasd va suiqasd qilish holatlarini chuqur tahlil etib borish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan, spirtli ichimlikka va giyohvandlikka ruju qo'ygan, shuningdek notinch oilalarda yashayotgan, ishsiz, boquvchisini yo'qotgan, yolg'iz, uzoq muddatga chet elga chiqib ketib qaytib kelgan ayollarning uylariga borib, yashash sharoiti va turmush tarzini o'rganish, profilaktik suhbatlar o'tkazish orqali ularni to'g'ri yo'lga qaytarishga erishish bo'yicha

belgilangan tartibda chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

5. Yoshlar ishlari agentli shahar bo'limi (A.Yunusov)ga:

- kasb-hunar maktablari va ichki ishlar boshqarmasi bilan birgalikda ta'limdan bo'yin tovlab, ishlash uchun chet davlatlarga chiqib ketgan o'quvchilarni o'qishga qaytarish choralarini ko'rish;

- huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan aniq hamda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha aniq manzilli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish sektor rahbarlari va doimiy komissiya raislari zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Usmonov